O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 821.512.133-1.09

Furqat TO‘XTAMURATOV,
PhD, dotsent, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: furqat@navoiy-uni.uz, ORCID ID: 0000-0001-9855-2353

QarDU dotsenti, DSc Sh.Nuriddinov taqrizi asosida

MUHSINIY SHE’RIYATIDA BADIIY SAN’ATLARNING QO‘LLANISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Husaynquli Muhsiniy she’riyatida lafziy va mushtarak badiiy san’tlarning ifodalanishi bo‘yicha tahlillar bayon qilinadi. Shoir badiiy niyatini ro‘yobga chiqishida lafziy va mushtarak san’atlar muhim o‘rin tutishi aniq misollar bilan dalilangan. Maqolada Muhsiniy she’rlari tarkibida tarsi’, muvozina, zulqofiyatayn, radd ul-ajuz al as-sadr, radd ul-qofiya, saj’, kitobot, tajziya, tardi aks kabi lafziy san’atlarning qo‘llanishi misollar asosida tahlil qilingan. Shunigdek, tazod, tajnis, ishtiqoq, iqtibos va tatabbu’ kabi mushtarak san’atlar ham shoir badiiy niyatini ochib berishda muhim vosta vazifasini bajargani dalillangan.

Kalit so‘zlar: G‘azal, bayt, lafziy san’atlar, mushtarak san’atlar, mazmun va shakl, ijodkor g‘oyasi.

THE USE OF LITERARY DEVICES IN MUHSINIY’S POETRY

Annotation

This article presents an analysis of the use of verbal and combined literary devices in the poetry of Husaynquli Muhsiniy. It demonstrates, through concrete examples, the significant role these devices play in realizing the poet's artistic intent. The study analyzes the application of verbal devices—such as “tarsi‘ ”, “muvozina”, “zulqofiyatayn”, “radd ul-ajuz ‘ala as-sadr”, “radd ul-qofiya”, “saj‘”, “kitobot”, “tajziya”, and “tardi aks”—within Muhsiniys poems. Furthermore, it establishes that combined devices—including “tazod”, “tajnis”, “ishtiqoq”, “iqtibos”, and “tatabbu‘”—also serve as crucial means of conveying the poet's artistic vision.

Key words: Ghazal, bayt, verbal figures of speech, shared figures of speech, content and form, the creator's idea.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЛИТЕРАТУРНЫХ ПРИЕМОВ В ПОЭЗИИ МУХСИНИЙ

Аннотация

В данной статье представлен анализ использования словесных и комбинированных литературных приемов в поэзии Хусайнкули Мухсиний. На конкретных примерах демонстрируется важная роль этих приемов в реализации художественного замысла поэта. В работе рассматривается применение таких словесных приемов, как “тарси”, “мувозина”, “зул-кафиятайн”, “радд ул-аджуз ала ас-садр”, “радд ал-кафия”, “садж”, “китобат”, “таджзия” и “тарди акс”, в стихотворениях Мухсиний. Кроме того, показано, что комбинированные приемы — в частности, “тазод”, “таджнис’, “иштикак”, “иктибос” и “татаббу” — также служат важнейшими средствами воплощения художественного видения поэта.

Ключевые слова: Газель, бейт, словесные фигуры речи, общие фигуры речи, содержание и форма, замысел автора.

Asosiy qism. Mumtoz matnlarni badiiy san’at vositalarisiz to‘la anlash imkonisiz. Zero, ularda ijodkor niyati betakror shakl va uslubda ifodalanadi. Badiiy san’atlarni mumtoz manbalar asosida o‘rgangan olim Yoqubjon Is’hoqov mumtoz adabiyotimizda qo‘llanilgan asosiy san’atlarni ularning she’riy matn doirasidagi funksiyasi bilan aloqadorlikda 10 ta guruhga ajratib o‘rganishni tavsiya qiladi. Mumtoz she’riy san’atlar adabiyotshunos Zokir Mamajonov tomonidan ham tasnif qilingan bo‘lib, olim ularni yuzaga kelish asosi nuqtayi nazaridan 12 guruhga ajratadi.

Adabiyotshunos olima Dilnavoz Yusupova esa Atoulloh Husayniy qarashlariga tayanib lafziy, ma’naviy va mushtarak san’at turlariga bo‘lib o‘rganishni ilgari suradi. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti nazariyasiga doir kitoblarda ham ushbu tasnifga hamohang nazariy fikrlar bildirilgan. Biz ushbu maqolada professor Dilnavoz Yusupova fikrlariga tayangan holda Muhsiniy she’ritida lafziy va mushtarak san’atlarning qo‘llanilishini tahlil qilamiz. Sharq sheriy poetikasida badiiy san’atlar nutuqqa bezak berish barobarida fikrni go‘zal va taran mazmunli bo‘lishini ta’minlaydigan vosita hisoblanadi.

Husaynquli Muhsiniy devoni tarkibiga kiritilgan she’riy asarlarida tarsi’, muvozina, zulqofiyatayn, radd ul-ajuz al as-sadr, radd ul-qofiya, saj’, kitobot, tajziya, tardi aks kabi lafziy san’at namunalari mahorat bilan istifoda etilgan. Professor Y. Is’hoqov fikriga ko‘ra lafziy san’atlar nutqning ifoda uslubi bilan aloqador badiiy san’atlar majmuasidir.

Tarsi‘ lafziy san’atining eng yorqin namunasi hisoblanadi. “Tarsi’ (ar. – gavharni ipga tizish) – baytning birinchi misrasidagi barcha so‘zlarning ikkinchi misradagi so‘zlar bilan o‘zaro teng, vazndosh va qofiyadosh bo‘lishiga asoslangan badiiy san’at” [Yusupova D., 2022, 215].

Demak, yuqorida berilgan nazariy ma’lumotlarga ko‘ra tarsi’ lafziy san’at bo‘lib, shakily jihatdan so‘zlar teng bo‘lishi talab qilinadi.

Assalom, ey Ka’bayi tahqiqimiz,
Assalom, ey moyayi tavfiqimiz [Muhsiniy.,2008,128].

Mazkur bayt tarsi’ san’atining yorqin namunasi bo‘la oladi. Birinchi va ikkinchi misralardagi so‘zlar o‘zaro teng, vazndosh va qofiyadosh bo‘lagani uchun tarsi’ san’atini hosil qilgan. Ushbu bayt to‘rt bandli tarji’bandning har bandi oxirida takrorlanib kelishi bilan tarji’ san’atining ham go‘zal namunasidir. Bayt teran diniy-axloqiy mazmun anglatadi. Lirik qahramon Ka’baga salom berish orqali uning egasi bo‘lgan, Allohdan yurtga haqiqat qilishini so’rasa, keying misrada yordam va madadning asosi Yaratgan ekanligi ta’kidlanadi.

Ayrim lafziy san’atlar orasida nozik chegara mavjud. Ana shu nozik ma’noni anglash orqali badiiy san’at farqlandi.

Tarsei’ va muvozana ana shunday san’at turidir. Muvozina san’atiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Muvozina san’ati vazn tengligi – vazndoshlik, ritmik uyg‘unlikni anglatadi. Muvozina san’atining o‘ziga xos belgisi – misralarda ostinma-ustun turgan so‘zlarning o‘zaro ritmik muvofiqligi, tovush bo‘laklarining uyg‘un takroridir” [Rahmonov V., 2020, 86].

Quyidagi bayt muvozina san’atiga misol bo‘la oladi:

To‘kti xunobi sirishkim soching savdosi ,

Oldi g‘arqobi tanimning soching savdosi [Qo‘lyozma. № 7392. 104 -b]– baytda qiyoslanayotgan to‘kti-oldi, xunobi-g‘arqobi, sirishkim-tanimning juftliklari to‘liq qofiyadosh emas, so‘zlar ohangdosh va vaznda bir-biriga teng bo‘lgani bois muvozina san’ati hisoblanadi.

Muhsiniy she’riyatida ham qofiyaga asoslangan badiiy san’atlar mahorat bilan qo‘llanilgan. Mumtoz adabiyot nazariyasiga doir kitobda qofiga oid badiiy san’atga quyidagich ta’rif beriladi: “Zulqofiyatayn (ar. “ikki qofiyalik”) – bayt misralarida ikki so‘zni qofiyadosh qilib keltirishga asoslangan badiiy san’at bo‘lib, baytda asosiy qofiyadan tashqari yana bir so‘z o‘zaro qofiyalanadi. Bunda qofiyadosh so‘zlar misralar oxirida ketma-ket (mutakarrin qofiya) keltirilishi yoki misralarning turli o‘rnlarida (mahjub qofiya) kelishi mumkin” [Yusupova D., 2022, 216].

Muhsiniyning bir qancha g‘azallari matla’sida ham zulqofiyatayn san’atining mahjub qofiya turi qatnashganini ko‘rishimiz mumkin. Quyidagi “Muborak” radifli g‘azal matla’si fikrimizni dalilaydi:

Ey, chashmi fitna jallod, javr-u jafo muborak,

Jonimg‘a soldi bedod, ro‘zi dag‘o muborak [Qo‘lyozma. № 7392. 50-b]–

bayt tarkibidagi asosiy qofiya jafo-dag‘o so‘zlari bo‘lsa, misralar o‘rtasida kelgan jallod-bedod so‘lari o‘zaro ohangdosh bo‘lib, mahjub qofiyani go‘zal namunasini hosil qilgan. Ushbu qo‘sh qofiyodosh so‘zlar baytning jarangdor o‘qilishini ta’minlash barobarida mazmunning ham ta’sirli bo‘lishiga xizmat qilgan. Yuqorida keltirilgan baytda quyidagi mazmun anglashiladi: “Ey ko‘zi fitna soluvchi jallod, menga qilgan javr-u jafolaring muborak bo‘lsin, jonimg‘a azob soladigan har kungi aldovlaring muborak”, deya lirik qahramon qalb tug‘yonlarini tasvirlaydi.

Shoir tuyg‘ulari tasvirini ifodalashda radd ul-ajuz al as-sadr san’atidan unumli foydalanadi. “Radd ul-ajuz al as-sadr (ar. – ajuzdan sadrga borish) – qaytarishga asoslangan she’riy san’atlardan biri. Mutobiq va musaddar deb ham ataladi. Bu san’atga ko‘ra, baytning oxirida kelgan so‘z keyingi baytning boshida takrorlanib keladi” [Yusupova D., 2022, 217].

Quyidagi baytlarda radd ul-ajuz al as-sadr san’atining namunasi yuksak mahorat bilan qo‘llanilgan:

Ul xati nilufariyning hajri ishqi dashtida,

Chashmi hayvon labig‘a Xizr o‘lmish rahbari.

Rahbari Xizr ila chiqg‘oymen firoqi shomidin,

Baxt-u iqbolim fano qilsa naxusti axtari.

Axtari baxtim-la jonim tinchimay har subh-u shom, [Muhsiniy.,2008,99].

Yuqorida kelririlgan baytlarda rahbari, axtari, so‘zlari misralar oxiri va boshida takrorlanib qo‘llanib, radd ul-ajuz al as-sadr lafziy san’atini hosil qilgan. Mazkur 11 baytli ishqiy mavzudagi g‘azal matla’dan maqta’gacha radd ul-ajuz al as-sadr san’ati asosida ziynatlangan. Ushbu badiiy san’at ijodkor badiiy niyatini ta’sirli va go‘zal bo‘lishini hamda lirik qahramon qalb iztiroblarini tadrijiy ravishda kuchayib borishi ta’minlagan.

Qofiyaga asoslangan lafziy san’atlardan yana biri radd ul-qofiyadir. “Radd ul-qofiya (ar. - qofiyaning takrorlanishi) – g‘azal matla’sidagi qofiyaning undan keyingi baytlarda yoki maqta’da takrorlanishiga asoslangan san’at” [Yusupova D., 2022, 219].

Muhsiniy g‘azallarida radd ul-qofiya san’atini qo‘llashda bir necha badiiy maqsadlarni ko‘zlagan. U she’riyatdagi an’anaviy qofiya tizimi asosida, yanada murakkab va teran badiiy ifoda shakllarini yaratishga intilgan.

Savqi husnungg‘a berubdur xat-u xoling ravnaq,

Chunki ter birla zarafshon bo‘la tahriri varaq.

Muhsiniy yozsa jahon safhasina sharhi g‘amin,

Sig‘mag‘oy hasrat-u afsona ba itmomi varaq.

Ijodkorning mazkur baytlarida radd ul-qofiya san’atini hosil qilgan varaq so‘zi shakl bilan bog‘liq hodisa bo‘lmay, balki bayt mazmunini kuchaytiruvchi va shoir ifodalamoqchi bo‘lgan fikrni yuzaga chiqruvchi badiiy vosita vazifasini bajargan. Yuqorida keltirilgan g‘azal 9 baytli bo‘lib, ishq dardiga mubtalo bo‘lgan oshiqning ruhiiy iztiroblari tasvirlangan.

She’riyatda saj’ sana’ati ko‘proq g‘azallarda qo‘llaniladi va baytlarning o‘zaro ichki qofiyalanishiga asoslanadi. “Saj’ san’ati she’rlarda ham qatnashadi. Saj’ning she’rdagi ko‘rinishi ichki qofiya tarzida bo‘ladi. Ichki qofiya qatnashgan baytlarni musajja – ya’ni saj’li deyish mumkin”. [Rahmonov V., 2020, 83].

Asosan, g‘azalning ikkinchi baytdan boshlab, maqta’gacha har bir bayt, to’rt bo‘lak bo‘linib, ichki qofiya va asosiy qofiya asosida quriladi. Baytning birinchi, ikinchi, uchinchi bo‘laklari o‘zaro qofiyalansa, to‘rtinchi bo‘lak asosiy qofiya bo‘lib keladi. Muhsiniy she’riyatida ham saj’ san’ati asosida musajja’ g‘azalning betakror namunalari bitilgan. Shoir ijodida 10 ga yaqin musaja’ g‘azal bo‘lib, ularda ishqiy, diniy va irfoniy mavzular tarannum etilgan. Saj’ san’ati bilan ziynatlangan musajja’ g‘azaldan baytlar:

Ey, chashmi fitna jallod, javr-u jafo muborak,

Jonimg‘a soldi bedod, ro‘zi dag‘o muborak.

O‘ldi xarob holim, navrasta navniholim,

O‘lg‘oy sengo ubolim, ro‘zi jazo muborak. [Qo‘lyozma. № 7392. 50-a].

Yuqorida berilgan matla’da jafo, dag‘o so‘zlari g‘azalning bosh qofiyasi bo‘lsa, muborak so‘zi radif hisoblanadi. Ikkinchi baytdan boshlab, misralar teng ikki qismga bo‘linib, holim, navniholim va ubolim so‘zlari ichki qofiyalanib, saj’ san’atini paydo qilgan. Baytdagi jazo so‘zi matla’dagi bosh qofiya jafo, dag‘o so‘lariga qofiyadosh bo‘lib kelgan. Ushbu 9-baytli g‘azal 2-baytdan maqta’gacha saj’li qofiyalangan va she’rning xushohang bilan o‘qilishini ta’minlash barobarida shakl, ohang va mazmun uyg‘unligini ta’minlagan.

Arab alifbosidagi harflar ham ma’lum bir shakl va ma’noni ifodalab keladi. Ana shunday arab alifbosidagi harflarning yozilishi bilan bog‘liq san’at turi kitobat san’ati deyiladi. “Kitobot (harf) - arab alifbosidagi harflarning shaklidan foydalanib, timsol yaratish san’ati. Bunda ج (“jim”), ل (“lom”) – zulf; ن (“nun”) – qosh; ا (“alif”) – yorning qomati; د (“dol”) – oshiqning qomati; م (“mim”) – yorning og‘zi yoki o‘rilgan soch; س (“sin”) – tish; nuqtalar – xol ma’nolarida keladi”. [Yusupova D., 2022, 223].

Qoshlaringni yodida xam o‘ldi sarvi qomatim,

Chun alifdek qaddimi qildi g‘aming monandi dol [Muhsiniy.,2008, 65].

Baytda lirik qahramon – oshiqning ma’shuqa hajrida chekkan azoblari alif (ا) va dol (د) harflari orqali ko‘rsatilmoqda. Arab alifbosidagi harflarning shakli ijodkor tasvirlamoqchi bo‘lgan holatni yanada ta’sirli bo‘lishini ta’minlagan. Baytdan quyidagi mazmun anglashiladi: Oshiqning ma’shuqa qoshlarini ko‘rish ishtiyoqida sarv daraxtidek tik qomati xam bo‘lgan va alifdek (ا) to‘g‘ri qaddi xuddi dol (د) kabi egilgan. Yuqoridagi baytda shoir kitobat san’atini lirik qahramon tuyg‘u va iztiroblarini o‘quvchi ko‘z oldiga yorqinroq ifodalash niyatida qo‘llagan.

Muhsiniy boshqa bir g‘azalida Allohning buyukligi va cheksiz qudrat sohibi, hamda borliq olamni yaratuvchisi

ekanligini kof (ک) va nun (ن) harlarini keltirish orqali ifodalaydi. Bu ikki harfning qo‘shilib yozilishidan arabcha kun (کن) ya’ni yaral degan so‘z hosil bo‘lishini betakror shakl va ma’no uyg‘unligida qo‘llangan.

Mana o‘sha bayt:

Qoshing mehrobi toqi sajdagohi jumla mo‘mindur,

Vujuding boisi kavn-u makon-u kof ila nundur [Muhsiniy.,2008, 29].

Bayt teran mazmun anglatgani bilan ham ahamiyatlidir. Birinchi misrada Alloh taoloning uyi, ya’ni masjid mehrobi, toqi qoshida barcha mo‘min-musulmonlar jumlasi sajda qilishi aytilgan bo‘lsa, ikkinchi misrada Yaratganning borliqni bir kalima bilan, kof va nun harlari birikuvidan, ya’ni kun (کن) (yaral) so‘zi orqali yaratganiga ishora qilmoqda. Shoir yuqoridagi baytda kitobat san’atining nodir namunasini yaratgan.

Mumtoz adabiyotda qofiyaga asoslangan lafziy san’atlardan yana biri tajziyadir. “Tajziya (ar. “bo‘lak bo‘lak qilmoq”) bayt misralarining har birini teng ikki bo‘lakka ajratib, birinchi bo‘lakni uchinchi bo‘lak bilan, ikkinchi bo‘lakni to‘rtinchi bo‘lak bilan qofiyalash san’atidir. Bu san’at asosan g‘azal yoki qasidaning birinchi baytida, ya’ni matla’sida qo‘llaniladi” [Yusupova D., 2022, 220].

Ko‘zlaring fitnasidur, jong‘a balo ey, qaroko‘z,

Har birin g‘amzasidur, inja biyo ey, qaroko‘z [Qo‘lyozma. № 7392. 32-b].

Ushbu matla’da misralar teng ikki bo‘lakka ajratilib, ikkinchi bo‘lakdagi balo qofiyasi to‘rtinchi bo‘lakdagi biyo so‘ziga qofiyadosh bo‘lib kelgan. Dastlabki misradagi birinchi bo‘lak tarkibidagi fitnasidur so‘zi, uchinchi bo‘lakda g‘amzasidur so‘ziga qofiyadosh qilingan va misralar teng to‘rt bo‘lakka bo‘linib o‘zaro qofiydoshlik asosida tajziya san’atini hosil qilgan. Tajziya san’ati qo‘llangani bois misralar hushohang va yengil o‘qilishi bilan baytga ziynat bag‘ishlagan.

“Tardi aks san’ati badiiy-tasvir vositalarining lafziy san’atlar qismiga mansub. Shoir birinchi misrada ishlatgan ikkita so‘zning o‘rinlarini almashtirib ikkinchi misrada takrorlasa tardi aks san’atini qo‘llagan bo‘ladi” [Rahmonov V., 2020,77].

Muhsiniy she’rlarida ham tardi aks san’ati qo‘llangan baytlarni ko‘rishimiz mumkin. Quyidagi bayt komil tardi aks san’ati bilan ziynatlangan.

Istar esang azizlig‘i, eldin uz tama’,

Olam elin azizi dedi:-Azza man qana’ [Muhsiniy.,2008,48].

Shoir birinchi misrada azizlig‘i va eldin so‘zlarini ikkinchi misrada o‘rnini almashtirib qo‘llash orqali tardi aks san’atini yaratgan. So‘z shaklining almashishi baytning nozik va teran ma’noni ifodalashiga xizmat qilgan.

Muhsiniy she’riyatida mushtarak san’atlardan tazod, tajnis, ishtiqoq, iqtibos va tatabbu’ kabilar mohirona tarzda qo‘langan. Adabiyotda tazod muhim badiiy san’at bo‘lib, nazm va nasriy asarlarning hayotiyligini ta’minlaydi. Shu bois tazod san’atiga mumtoz va zamonaviy she’riyatda doim murojaat qilinadi. “Tazod (ar. – zid qo‘yish, qarshilantirish) – baytda ma’no jihatdan o‘zaro zid, qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlarni qo‘llashga asoslangan she’riy san’at” [Yusupova D., 2022, 235].

Muhsiniy she’riyatida tazod san’ati, asosan, g‘azallarda lirik qahramon qalbida kechayotgan ziddiyatli fikr va tuyg‘ularni qarama-qarshi ma’noli so‘zlarni keltirish orqali hosil qilinadi. Natijada obrazlarning fikr va hissiyotlaridagi ziddiyatlar kuchaytirib tasvirlanadi. Shoirning ushbu baytida zid ma’noli so‘zlar tazod san’atini hoslil qilgan:

Men gado xoki darida tortadurman intizor,

To qachon so‘rg‘ay malohat taxtida sulton subh [Muhsiniy.,2008:22].

Bayt mazmuni quyidagicha: Oshiq visol umidida ma’shuqa eshigida tuproqdek xorlikda gado kabi kechasi bilan kutsada, mahbubasi malohat taxtida o‘tirgan sultondek uning ahvolini tongda ham so‘ramasligidan shikoyat qilmoqda. Birinchi misrada kelgan gado so‘ziga zid bo‘lgan sulton so‘zining ikkinchi misrada kelishi tazod san’atining yorqin namunasini vujudga keltirgan.

Bir o‘zakdan hosil bo‘lgan so‘zlarni bayt va misralarda keltirish orqali shakl va ma’no nozigligi erishish ishtiqoq san’ati orqali ifodalanadi. Shu sababli bu san’at mushtarak san’atlar sirasiga kiradi. “Ishtiqoq arabchadan “bir so‘zdan boshqa so‘z hosil qilish” degan ma’noni bildiradi. Ya’ni bir o‘zakdan hosil bo‘ladigan bir necha so‘zni bayt yo jumlada qo‘llash san’ati” [Yusupova D., 2022, 236].

Muhsiniy she’rlarida ishtiqoq san’ati namunalaridan bayt va misralarda mahorat bilan samarali foydalanadi. Shoir g‘azallarida bir asosdan hosil bo‘lgan turli shakldagi so‘zlarni mahorat bilan qo‘llaydi.

Meni dardimg‘a iloj o‘ldi guli orazidin,

Oqti ter, sharm-u hayo o‘ldi gulobina araq [Muhsiniy.,2008:55].

Muhsiniy baytda ishtiqoq san’atini nafaqat shakl, balki ma’no jihatidan ham betakror qo‘llagan. Baytda “gul” va “gulob” so‘zlari ishtiqoq san’atini hosil qiluvchi vositalardir. Birinchi misradagi “gul” so‘zi yorning yuziga, go‘zalligiga ishora qilib, uning chiroyini, o‘ziga xos jozibasini tasvirlasa, ikkinchi misrada kelgan “gulob” so‘zi guldan tayyorlanadigan xushbo‘y ichimlik ma’nosin anglatib kelmoqda. Shoir, so‘zlarning o‘zakdoshligi orqali ishtiqoq san’atini hosil qilish barobarida she’rga quyidagi nozik ma’no yuklagan: ma’shuqaning guldek go‘zal yuzidan dardimga shifo topish imkoni paydo bo‘ldi, chunki uning sharm-u hayosi tufayli yuzidan oqqan terdan gulob tayyorlanadi. Tabiiyki, bu gulobni ichgan oshiq hijron dardidan forig‘ bo‘lishi shoirona tafakkur va taxayyul bilan ifodalanmoqda. Mazkur baytda qo‘llangan ishtiqoq san’ati hamda u orqali ifodlangan mazmun, Muhsiniyning badiiy topilmasi hisoblanadi.

Mumoz adabiyotda shoirlar ulug‘ salaflari ijodini sevib o‘qish barobarida ularning she’r yozish usullariga ergashib ijod qilishgan. Bu ergashish mumtoz adabiyotda nazira, tatabbu’ va taxmis bog‘lash shaklida amalga oshirilgan. “Tatabbu’ (ar.–biror narsaning izidan borish; kuzatish) – o‘zga bir shoir she’ridan ta’sirlanib, undagi vazn, qofiya va radifni saqlagan holda asar yaratish. Tatabbu’ she’riyatning istalgan janri yoki shakli asosida: farddan dostongacha yozilishi mumkin” [Yusupova D., 2022, 239].

Navoiyning mashhur “Kelmadi” radifli g‘azalida dunyoviy ishq orqali ilohiy ishq kuylangan. Navoiy g‘azal hajmi 7 bayt bo‘lib, gulro‘, uyqu, bagxo‘, qorong‘u, kulgu, su(v), o‘tru, qayg‘u so‘zlari qofiyadosh bo‘lib kelgan. G‘azal ramali musmmani mahzuf vaznida yozilgan. Husaynquli Muhsiniy Navoiyning ushbu g‘azaliga bog‘lagan tatabbu’-g‘azali matla’si quyidagicha:

Kecha yalg‘on va’da aylab ul pariro‘ kelmadi,

Fikri vasli birla tokim ko‘zga uyqu kelmadi [Muhsiniy.,2008, 89].

Ushbu tatabbu’– g‘azal ham Navoiy g‘azali kabi ramali musmmani mahzuf vaznida bitilgan. Hajm jihatidan har ikki g‘azal 7 baytdan iborat bo‘lib, bir xil kelmadi so‘zi radif sifatida qo‘llangan. Navoiy qofiyada keltirgan kulgu, badxo‘, qayg‘u so‘zlari takrorlangan bo‘lsa, pariro‘, sumanbo‘, qamtu qofiyalari Muhsiniy tomonidan ijod etilgani kuzatiladi. Muhsiniyning tatabbu’– g‘azalida Komilxon ismini muvashshah qilgani ijodiy yangiligidir. Shoir tatabbu’ bitishda mumtoz adabiyotning barcha nazariy talablariga amal qilgan. Shoir devonida ulug‘ ustozlari va zamondosh shoirlardan Fuzuliy, Amiriy, Muqimiy va Furqat g‘azallariga bog‘lagan tatabbu’llar o‘rin olgan.

Husaynquli Muhsiniy XIX asr oxiri – XX asr boshlarida diniy-tasavvufiy mavzuda samarali ijod qilgan shoirlardan hisoblanadi. Shoirning bir qator hamd, munojot va na’t ruhida yozilgan g‘azallarida Qur’on oyatlari va payg‘ambarimiz hadislaridan bir juz’- parcha keltiradi. “Iqtibos – mushtarak san’atlar jumlasidan bo‘lib, nasr yoki nazmda bayonning yorqin va go‘zal ifodasi uchun oyat va hadislar keltirish usuli. Ayrim olimlar (masalan, Atoulloh Husayniy) fikricha, iqtibos sifatida olingan oyat va hadislar to‘g‘ridan – to‘g‘ri, ya’ni ularning oyat va hadis ekanligiga ishora qilinmagan holda keltirilishi lozim. Navoiy ko‘p o‘rinda iqtibos uchun olgan iboralarining manbayiga ishora (oyat, hadis ekanligiga) qilib ham ketadi”. [Ishoqov Yo., 2014, 57-58].

Shoir she’rlari matnida Qur’oni karim oyatlari va hadislardan iqtiboslar, so‘z va birikmalar shaklida ko‘plab uchraydi. Muhsiniy she’riy asarlarida oyat va hadislar matni quyidagicha berilgani kuzatiladi: Qur’on oyatidan yoki hadisi sharifdan bir tayanch so‘z yoki jumla aynan keltiriladi.

Rahmat ummidin orzu har banda aylar justujo‘,

Farmon erur “lo taqnatu” omurzishi jurm-u xato [Muhsiniy.,2008:11].

Shoirning hamd g‘azalidan olingan ushbu baytda “La taqnat-u min rahmatillah” (“Zumar” surasi, 53-oyat), ya’ni “Allohning rahmatidan noumid bo‘lmang” [Qur’oni karim ma’nolar tarjimasi, 2004, 251] mazmunidagi Qur’oni karim oyatidan iqtibos olingan. Oyatning bir juz’i bayt ma’nosining teran ifodasini ta’minlagan. Bu, o‘z navbatida, iqtibos san’atining go‘zal namunasidir.

Yana bir na’t-g‘azalda Rasulullohning “Ana afsah”, ya’ni “Men Arab-u Ajamda chiroyli so‘zlovchiman”, degan ma’nodagi so‘zlari mohiyatan Qur’oni karim oyati ramzida ifodalangani, shu bois har bir inson ul zotning so‘zlarini qulog‘iga halqadek taqib olsa, ya’ni ularga so‘zsiz amal qilsa, durr-u gavhardan ham laziz ne’matga – ikki olam saodatiga erishishi mumkinligi haqida so‘z yuritilgan. Mana, o‘sha bayt:

Durri guftoring “Ana afsah”ki, oyat ramzida,

Halqa bargo‘sh aylagach chun durri gavhardin laziz[Muhsiniy.,2008, 25].

Muhsiniy she’riyatida iqtibos san’ati qo‘llash orqali Qur’on oyatlari va hadisi sharifdan so‘z, birikmalar keltirish barobarida o‘zining diniy qarashlarini asosli tarzada ifodalaydi. Bu hol shoirning islom dini tarixi va Qur’on, hadis hamda arab tilining nozik jihatlarini ham teran anglagani bildiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda Husaynquli Muhsiniy lirik merosi janrlari xilma-xil va mavzu qamrovi kengdir. Shoir badiiy niyati, ifodalamoqchi bo‘lgan fikr va tuyg‘ularini yanada ta’sirli bo‘lishi uchun she’rlarida lafziy va mushtarak san’atlarni mahorat bilan qo‘llaydi. Badiiy san’atlar shoir she’rlarining shaklan go‘zal, mazmunan teran bo‘lishi ta’minlaydi. Muhsiniy she’rlarida lafziy va mushtarak san’atlar uning fikr va tuyg‘ularini ochib beruvchi muhim badiiy tasvir vositasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. – Т.: Шарқ, 1998. 158 б.
2. Ҳусайний Атоуллоҳ. Бадойиъу-с-санойиъ. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981. 397 б.
3. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Ўзбекистон, 2014. – 320 б.
4. Муҳсиний. Барҳаёт гулшан. Девон. – Фарғона, 2008. – 168 б.
5. Қайюмов П. Хўқанд тарихи ва унинг адабиёти. –Т.:Тамадун,2011. 389 б.
6. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш, Аҳмедов С., Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти дарслиги. – Т.: Маънавият, 2004. 458 б.
7. Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Алоуддин Мансур. – Тошкент. 2004. 489 б.
8. Қўлёзма девон. ЎзР ФАШИ Инв № 7392.
9. Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Т.: “Шарқ”, 2020. – 240 б.
a. 10.Сирожиддинов Ш.Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарлашмалари. – Т., 2011.220 б.
10. Yusupova D. Aruz va mumtoz poyetikaga kirish. –Toshkent: Tamaddun, 2022. – 256 b.
11. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балоға. /Масъул муҳаррир Б. Ҳасанов /. – Т.: Хазина, 1996. 212 б.